https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Oripova Madinabonu Mansur qizi
QarDu, iqtisodiyot yo‘nalishi
023-19-guruh 3-bosqich talabasi

BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA DAVLATNING IQTISODIY ROLI VA VAZIFALARI

Annotatsiya

Bozor iqtisodiyoti sharoitida Davlat qanday iqtisodiy rol va vazifalar olib borishini bir qancha jarayon va misollarda ko’rib chiqamiz va buning ahamiyati, vazifalari qay hold amalga oshishini ko’rishimiz mumkin. Ushbu maqolada bozor iqtisodiyoti nima va uni Davlat qanday tartibga solinishini ko’rib chiqiladi va bundagi vazifalar nimalardan iborat Davlat bozor iqtisodiyotini tartibga solishda qanday tizim va vazifalardan foydalandi va jarayon qanday amalga oshadi ushbu faoliyat turlari haqida to’xtalinadi. Bozor iqtisodiyoti shunday bir mustaqil tizimki, unda sof jarayon raqobatga asoslangan bo’lib amalga oshadi, biroq bu vaziyatda hamma jarayon ham shaffof amalga oshmaydi ushbu savollarga quyidagi maqolada javob beriladi.

Kalit so’z

Bozor iqtisodiyoti, Davlat regulyatsiyasi, iqtisodiy siyosat, moliyaviy-kredit mexanizmlari, ijtimoiy himoya, makroiqtisodiy barqarorlik, Davlat-xususiy sheriklik

Аннотация

Мы рассмотрим на нескольких примерах, какие экономические роли и задачи государство выполняет в рыночной экономике, и увидим его значение и как реализуются его задачи. В данной статье мы рассмотрим, что такое рыночная экономика, как она регулируется государством и каковы его задачи. Какие системы и задачи государство использует для регулирования рыночной экономики, и как осуществляется этот процесс, мы обсудим эти

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

виды деятельности. Рыночная экономика — это независимая система, в которой чистый процесс основан на конкуренции, но при этом не все процессы прозрачны. На эти вопросы мы ответим в следующей статье.

Ключевые слова

Рыночная экономика, государственное регулирование, экономическая политика, финансово-кредитные механизмы, социальная защита, макроэкономическая стабильность, государственно-частное партнерство.

Abstract

We will consider in several processes and examples what economic roles and tasks the State performs in a market economy, and we can see its importance, how its tasks are implemented. This article will consider what a market economy is and how it is regulated by the State, and what its tasks are. What systems and tasks the State uses to regulate the market economy, and how the process is carried out, it will be discussed about these types of activities. A market economy is an independent system in which the pure process is based on competition, but in this situation not all processes are transparent. These questions will be answered in the following article.

Keywords

Market economy, State regulation, economic policy, financial and credit mechanisms, social protection, macroeconomic stability, Public-private partnership.

Kirish: Bugungi O‘zbekiston iqtisodiyoti bozor iqtisodiyotiga asoslangan tizim bo‘lib iqtisodiyotni tartibga solishning ikki mexanizmi yuzaga keladi: davlat va bozor mexanizmlari hisoblanadi. Davlat mustaqil faoliyat olib boruvchi institutsional tizim bo’lib jamiyat uchun eng muhim tashkilot hisoblanadi. Shuningdek, Davlat o’z qonunlariga muvofiq jamiyat va tashkilotlarni idora etadi. Davlat butun chegaralari bo’yicha o‘z fuqorolari nomidan bir butun bo‘lib aholising yagona vakili sifatida maydonga chiqadi. Davlat suveren hokimyatning yagona egasi hisoblanadi. Xususan, davlat o‘z vazifalarini bajarish uchun ya’ni qonun ishlab chiqish, boshqarish va nazorat qilish jarayonlarini amalga oshirishda

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

huquqni muhofaza qiluvchi organlar, tashkilotlariga ya'ni quyidagilarga ega bo'ladi: sud, prokuratura, militsiya, politsiya ka'bilarga. Shuningdek, Davlat iqtisodiyotni tartibga soluvchi asosiy mexanizmdir, tartibga solish jarayoning bozor iqtisodiyoti tasarrufida ko'rib chiqiladi. Davlat iqtisodiyotni tartibga solishda bozor mexanizmi to'liq bajara olmyaydigan vazifalarani o'z zimmasiga oladi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy maqsadi bozor muvozanatini ushlab turish, tartibga solish hamda nazorat qilish hisoblanadi. Davlat iqtisodiy subyektlari manfaatlari va jamiyat faoliyati bir biriga zid kelib qolmasligini ta'minlash uchun Davlat iqtisodiyotni bevosita hamda bilvosita tartibga solishi muhim hisoblanadi. Iqtisodiyotni Dvalat tartibga solishning bir qancha vazifalaridan foydalanadi bunda bozor iqtisodiyini bozor iqtisodiyotini rag'batlantirishi orqali amalga oshiradi. Bozor iqtisodiyotida sog'lom raqobatni ta'minlash orqali bir qancha vazifa mexanizmlardan foydalanadi.

Mavzuga doir adabiyotlar sharhi

Bozor xo'jaligi sharoitida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish qonunchilik, ijro etish va nazorat qilish xususiyatidagi tadbirlar tizimidan iborat bo'ladi. Hozirgi sharoitda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish takror ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bir qator vazifalarni hal qilishga qaratiladi. Bular jumlasiga iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, bandlikni tartibga solish, tarmoq va mintaqaviy tuzilmalardagi ijobiy siljishlarni qo'llab-quvvatlash, eksportni himoya qilish kabilarni kiritish mumkin. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi to'g'risida to'laroq tasavvurga ega bo'lishi uchun uning maqsadi, vazifalari va tartibga solish usullari hamda vosita yoki dastaklarini to'laroq tavsiflash lozim. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy maqsadi iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, mavjud tuzumni mamlakat ichida va xalqaro maydonda mustahkamlash va uni o'zgarib turuvchi sharoitga moslashtirish hisoblanadi.[1]

Iqtisodiyotni Davlat tomonidan tartibga solishning bir qancha vazifalari mavjud bo'lib ulardan biri qonunchilik faoliyatini olib borilishini ta'minlash,

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

qonun farmoishlar, Davlat ijro etilishini boshqarish hamda ushbu qonun farmoishlar amal qilish jarayonini nazorat qilishdan iborat bo‘ladi. Bozor iqtisodiyotini tartibga solishda Davlat zimmasida bir qancha vazifalar mavjud bo‘ladi iqtisodiy o‘sishni rag’batlantirish, bandliknitartibga solish hamda mahalliy va chetki hududlardagi o’zgarishlarni qo’llab-quvvatlash kiradi. Davlat tartibga solishni asosiy mexanizmining asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

- Iqtisodiy vaijtimoiy barqarorlikning ta’minlash
- Mamlakatning iqtisodiy tuzumini mustahkamlash
- Tashqi sharoitlarda ham barqaror faoliyat yuritish imkonini yaratish

Umuman olganda Davlat bozor xo’jaligida qonunchilik va nazorat vositalari orqali iqtisodiy jarayonlarni boshqaradi. Bu esa davlatning barqaror rivojlanishi uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi, biroq davlat bevosita tartibga solmay balki turli xil usullardan (tashkilotlar/organlar/korxonalar) foydalanadi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish deganda davlatning jamiyat a’zolarining ehtiyojlarini qondirish darajasini oshirish uchun cheklangan ishlab chiqarish resurslaridan yanada samarali foydalanishni ta„minlovchi, umumiy iqtisodiy muvozanatga erishiga yo‟naltirilgan, ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish bo‘yicha faoliyat tushuniladi. Iqtisodiyotni davlat tomonian tartibga solish mexanizmi to‘g‘risida to‘laroq tasavvurga ega bo‘lish uchun uning maqsadi, vazifalari va tartibga solish usullari hamda vosita yoki dastaklarini to‘laroq tavsiflash lozim. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy maqsadi, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, mavjud tuzumni mamlakat ichida va xalqaro maydonda mustahkamlash va uni o‘zgarib turuvchi sharoitga moslashtirish hisoblanadi. Bunda iqtisodiy tsiklni barqarorlashtirish, milliy xo‘jaliklarning tarmoq va mintaqaviy tuzilishini takomillashtirish, atrof-muhit holatini yaxshilash kabilarni bajarish lozim[2].

Bozor iqtisodiyotida davlatning roli eng muhim hisoblanadi. Nima uchun davlat aralashuvi muhim degan savolga javob sifatida bozor faoliyatidagi adolatsizliklarni oldini olish, bozor muvaffaqiyatsizliklarini bartaraf etish va

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

barqarorlikni ta’minlash hisoblanadi. Umuman olganda tartibga solishning zamonaviy dunyoda dolzarbligiga to’xtalsak, tartibga solingan jarayongina barqaror davom etishi mumkin bundan ko’rinib turibdiki tartibga solib turish nazorat qilish jarayoni ancha dolzarb bugungi zamonaviy sharoitda. Bugungi kunda dunyo iqtisodiyoti murakkab integratsiyalashgan, global muammolar bilan to‘la tizim bo‘lib qolmoqda. Bozor mexanizmi ko‘plab holatlarda samarali ishlasa-da, ba’zida bozorda o‘z-o‘zidan yechilmaydigan muammolar — ijtimoiy adolatsizlik, resurslarning noto‘g‘ri taqsimlanishi, monopoliyalar shakllanishi, atrof-muhitning buzilishi — yuzaga keladi. Shu sababli, davlatning iqtisodga aralashuvi, ya’ni iqtisodiyotni tartibga solish muhim bo‘ladi. Davlat aralashuvi orqali faqat bozor foydasini ko‘zlamaydigan, balki jamiyat a’zolarining farovonligi, ijtimoiy barqarorlik va umumiy iqtisodiy muvozanat ta’minlanadi. Quyida davlat tomonidan tartibga solishning mohiyati, maqsad va vazifalari, usullari hamda vositalari haqida tushuntiriladi.

Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarda ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. So‘nggi yillarda yalpi ichki mahsulotning (YaIM) o‘sish sur’atlari barqaror saqlanmoqda, inflyatsiya darajasi pasaytirildi, tashqi savdo balansida ijobiy siljishlar qayd etildi. Masalan, 2022–2023 yillarda inflyatsiya darajasi Markaziy bank tomonidan belgilangan maqsadli koridor ichida ushlab turildi. Shu bilan birga, valyuta kursining erkinlashtirilishi ham iqtisodiy erkinlikni oshirdi va investorlar ishonchini mustahkamladi. Ilg‘or islohotlar doirasida davlat korxonalarini xususiylashtirish, davlat ishtirokidagi kompaniyalarni korporativ boshqaruvga o‘tkazish, raqamli iqtisodiyotni joriy etish va erkin iqtisodiy zonalarni kengaytirish bo‘yicha ham faol ishlar olib borilmoqda. Bu esa iqtisodiyotda raqobat muhitini kuchaytirishga, samaradorlikni oshirishga va xalqaro bozorga chiqishga xizmat qilmoqda. Biroq, mavjud ijobiy ko‘rsatkichlarga qaramay, islohotlar samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan omillar ham mavjud. Eng avvalo, ayrim hududlarda islohotlarning sust borayotgani, byurokratik to‘siqlar va ma’muriy bosqichlarning ko‘pligi investorlar uchun xavf tug‘dirmoqda. Bundan

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

tashqari, soliq va bojxona tizimlarida hali-hanuz soddalashtirilishi zarur bo‘lgan jihatlar saqlanib qolmoqda. Iqtisodiy tarmoqlar o‘rtasida o‘zaro integratsiyaning past darajada bo‘lishi ham resurslardan samarasiz foydalanishga olib kelmoqda[3].

Makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlash davlatning eng muhim vazifalaridan biridir. Buning uchun hukumat byudjet siyosati, pul-kredit siyosati va soliq siyosati kabi asosiy iqtisodiy boshqaruv instrumentlaridan foydalanadi. Mazkur mexanizmlar orqali davlat iqtisodiyotdagi umumiy talab va taklif o‘rtasidagi mutanosiblikni saqlashga, inflyatsiya darajasini me’yorida ushlab turishga hamda ishlab chiqarish hajmining barqarorligini ta’minlashga intiladi. Byudjet siyosati orqali davlat xarajatlari va daromadlarining aniq rejalashtirilishi iqtisodiy faollikni qo‘llab-quvvatlaydi; pul-kredit siyosati esa foiz stavkalari va pul massasi orqali iqtisodiy sikllarni yumshatishda muhim rol o‘ynaydi. Soliq siyosati yordamida esa biznes subyektlari va aholining iqtisodiy xatti-harakatlariga ta’sir ko‘rsatilib, investitsiya muhitini yaxshilash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va umumiy makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash imkoniyati yaratiladi. Shu tarzda, davlatning muvofiqlashtirilgan iqtisodiy siyosatlari makroiqtisodiy muvozanatning shakllanishi va saqlanishida muhim o‘rinni egallaydi.

Tadqiqotlar metodologiyasi

Tadqiqotni olib borishda statistik tahlil, iqtisodiy hamda tizimli va majmuaviy yondashuv usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiy faoliyati muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u bozor mexanizmlarining samarali ishlashini ta’minlash, iqtisodiy barqarorlikni saqlash va ijtimoiy adolatni amalga oshirishga xizmat qiladi. Bozor iqtisodiyoti o‘z-o‘zini tartibga solish tamoyiliga asoslangan bo‘lsa-da, u mukammal emas, chunki bozor xatoliklari, monopoliyalar, ijtimoiy tengsizlik va iqtisodiy tsikllarning keskin tebranishi kabi muammolar yuzaga keladi. Shu sababli davlatning iqtisodiy roli bir qator vazifalarni o‘z ichiga oladi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ham iqtisodiy barqaror o‘sishni ta’minlash orqali aholi farovonligi ta’minlash ustuvor 5 yo‘nalishlardan biri sifatida keltitilgan. Xususan, yalpi ichki mahsulotning aholi jon boshiga to‘g‘ri kelish miqdorini oshirish orqali ko‘rishimiz mumkin hamda raqobatni kuchaytirish to‘g‘risidagi bir qancha chora tadbirlar davlat tomonidan qo‘llanilish strategik rejalari ham keltirilgan. O‘-o‘zidan ma’lumki ushbu qonun farnmosihlar davlatni bozor iqtisodiyotini tartibga solishdagi chora tatbirlari orqali barqaror va samarador o‘sish suratlarini joriy etayotganini ta’milayotganini tavsiflash mumkin.

Birinchidan, davlat makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash orqali inflyatsiya, ishsizlik va iqtisodiy o‘sish sur’atlarini nazorat qiladi. Bu esa moliyaviy va pul-kredit siyosati orqali amalga oshiriladi. Davlatning soliq va budjet siyosati iqtisodiy resurslarning teng taqsimlanishini va ijtimoiy xizmatlarning moliyalashtirilishini ta’minlaydi.

Ikkinchidan, davlat iqtisodiy raqobatni qo‘llab-quvvatlash va monopoliyalarning shakllanishini oldini olish orqali bozor samaradorligini oshiradi. Bu vazifa raqobat qonunchiligi va antimonopol siyosat orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, davlat strategik sohalarda investitsiyalarni rag‘batlantirish va muhim ishlab chiqarish infratuzilmasini yaratish orqali iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi.

Uchinchidan, ijtimoiy himoya va adolatni ta’minlash davlatning asosiy vazifalaridan biridir. Bozor iqtisodiyoti har doim ham daromadlarni teng taqsimlamaydi, shuning uchun ijtimoiy nafaqalar, pensiyalar, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalaridagi subsidiyalar orqali aholining himoyalangan qatlamlari qo‘llab-quvvatlanadi.

Natijada, bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiy roli va vazifalari ikki asosiy tamoyilga tayanadi: bozorning samarali ishlashini ta’minlash va ijtimoiy barqarorlikni saqlash. Davlatning faoliyati bozor mexanizmlarini to‘ldiruvchi, ularni mukammallashtiruvchi va ijtimoiy jihatdan adolatli natijalarni ta’minlovchi xarakterga ega. Shu sababli samarali davlat siyosati bozor

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

iqtisodiyotining barqaror o‘sishi, investitsiya muhitining rivojlanishi va ijtimoiy farovonlikni oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar

Davlat bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqaruvchi institute sifatida emas balki bozor jarayonlarini tartibga soluvchi nazorat qiluvchi va barqarorligini ushlab turuvchi institute sifatida faoliyat olib boradi. Undan tashqari davlat bozor iqtisodiyotidagi bir qancha muhim vazifalarni o‘z ichiga oladi. Bular quyidagilar bozor mexanizmlarini erkin ishlashini ta’minlash, monopoliya ko’zda tutilgan faoliyatlarga cheklov qo‘yish vas hu bilan bir qatorda sog‘lom o‘zaro raqobatni ta’minlash, ijtimoiy tizimni muhofaza qilish faoliyati va makro hamda mikro iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash vazifalarini o‘z ichiga oladi. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin. Davlatning bozor iqtisodiyoti oldidagi tartibga solish vazifasini kuchaytirish bu qanday amalga oshadi. Bu xususan soliq byudjet va monitar siyosatini bilvosita tartibga solish orqali amalga oshishini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, raqobat muhitini rivojlantirish orqali bir qancha soh ava sektorlardagi samarali faoliyat tizimini rivojlantirishga erishish mumkinligini yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

1. Xamidova Z. A. Davlat iqtisodiy siyosatining maqsad va vazifalari: ma’ruza matni. – Toshkent: Xalqaro Nordik universiteti, 2022.
2. Bozor iqtisodiyotini tartibga solishda davlatning roli. Toshkent, 2015. PDF fayl. URL: https://api.ziyonet.uz/uploads/books/607016/5879eb966b10a.pdf
3. Khaqimova, S. (2025). Makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda ilg‘or islohotlar samaradorligi. Advanced Methods of Ensuring the Quality of Education: Problems and Solutions, International Online Conference, 17 May 2025, pp. 34–37.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. — Toshkent, 2023.